

## Tarbiyaning paydo bo'lishi va tarixiy rivojlanishi.

Guliston Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika yo'nalishi 1-kurs talabasi  
**Abduvaliyeva Maftuna G'ulom qizi**

**Annotatsiya.**Maqolada qadimgi davrdan VII asrgacha Markaziy Osiyo va Yunonistonda ta'lim -tarbiyaning paydo bo'lishi va uning tarixiy rivojlanishi yotadi.

**Kalit so'zlar.**Tarbiya, ta'lim, ilm, Yunoniston, Afina, Sparta, pedagogik fikrlar, ibtidoiy jamoa, she'r, vatanparvarlik, kishilik jamiyati.

**Kirish.**Tarbiya- ijtimoiy hodisa.U kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan beri mavjud.Inson yer yuzidagi eng mukammal zot bo'lishi uchun avvalo,tarbiyalanishi zarur.Abu Lays Samarqandiy „Bo'stonul -orifun “asarida tarbiya va tarbiyalanishining ma'nosini tariflab „Ey o'g'il, farzandingizni tarbiyalashdan oldin o'zingni tarbiyala,tarbiya ko'rgan oilada boadab yaxshi fazilatli, bilimli odam voyaga yetadi”.-degan edi.Quldorlik tizimi davrida va feodalizmning boshlarida yaratilgan,„To'maris“, „Shiroq“, „Er hubbi“ „Siyovush“ „Rustam“ „Gershasp“ singari qator afsona va qahramonlik dostonlarida mehnatsevarlik,halollik, Vatanparvarlik el – yurt manfaati uchun fidoiylik kabi ijobiy fazilatlar tarannum etilgan.Qadimgi Yunonistonning ilk quldorlik davrida ikkita katta davlat -Afina va Sparta paydo bo'ldi ularda o'ziga xos ta'lim -tarbiya tizimi ham vujudga keldi.Masalan,Afinada maktab tizimi uch turdagi maktablardan musiqa, gimnastika va gimnaziya maktablaridan iborat edi.Musiqa maktabi xususiy maktab bo'lib unda pul to'lab o'qitilar edi.Musiqa maktablarida faqat 7 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan boy quldorlarning o'g'il bolalari o'qirdilar.Bu turdagi maktabda musiqiy tarbiya ham berilardi.Gimnastika maktabi -Palestra (kurash maktabi )deyilardi.Bu ham malum bir toifadagi kishilarga qarashli maktab bo'lib,unda 12 yoshga kirgan va ayni vaqtda musiqa maktabida o'qiyotgan o'g'il bolalar pul to'lab o'qir edilar.Bu turdagi maktabda bolalar yugirish,sakrash,disk uloqtirish,nayza uloqtirish va kurash mashqini bajarardilar.Gimnaziya davlatga qarashli maktab bo'lib, unda asosan Afinadagi katta yer egalari -kiborlarga mansub nomdor oilalardan chiqqan ,musiqa va gimnastika maktablarini tamomlagan aslzoda yoshlar o'qirdilar.Qadimgi Yunonistonning mashhur faylasuflari, Suqrot,Arastu, Demokrit va boshqalar o'z faoliyatida yoshlarni o'qitish hamda tarbiyalash vazifalariga ham jiddiy e'tibor berganlar.Platon (eramizdan avvalgi 427-343-y )obyektiv idealizm nazariyasining asoschisidir.U ideyalar dunyosi birlamchi his qilinadigan narsalar dunyosining

ikkilamchi , deb hisoblagan. Platonning inson kamolotida ijtimoiy tarbiyaning roli va uning asosi maktabgacha tarbiyada vujudga kelishi haqidagi g'oyalari pedagogika taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Arastuning yozishicha davlatning bitta muhim vazifasi bor, ya'ni u hamma fuqarolariga bir xil tarbiya berilishini ta'minlashi lozim. Tarbiya xususiy tashabbus emas balki ,davlatning eng dolzarb vazifasi bo'lmog'i lozim.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.**

• Alisher Navoiy tarbiyaning asosiy belgilaridan biri, bolaga yaxshi ism qo'yish, ilmu adab o'rgatish , ota -onaga , umuman kattalarga hurmat hissini singdirishdan iboratligini uqtiradi. K.D Ushiniskiyning „ Pedagogika adabiyotining foydasi” nomli risolasida: „Tarbiyalash ishi shubhasiz insonning ongli va aqliy faoliyatlaridan biridir :tarbiya tushunchasining o'zi tarixan vujudga kelgan va u tabiatda yo'q narsadir... Tarbiyalash faoliyati fikr yuritishni ,haqiqatni anglashni ham o'rgatadi”, deyilgan. Qadimgi mashhur tarixchi „Tarixning otasi” Gerodod ham o'zining „Tarix “ nomli kitobida ham tarbiyaga oid qarashlarini keltirib o'tgan . Qadimda ham o'g'il hech qachon ota onasini behurmat qilmagan, ular ota -onaga hurmatsizlikni faqat nikohsiz tug'ilgan ,yoki tashlandiq bolalardangina kutish mumkin ,deb hisoblaganlar. Tarixchi va pedagoglarning ko'rsatishicha bolalar mehnat orqali ham tarbiya topganlar va ular uch guruhga bo'linganlar.

- Bolalar va o'smirlar mehnati natijasida
- Hayot va mehnatda to'la ishtirok etuvchilar
- Keksalar ham ,tarbiyani keksalikda ham mehnat orqali jismoniy harakat orqali davom ettirishlari.

### **Muhokama.**

„Pedagogika tarixidan xrestomatiya “kitobida O'rta Osiyoda dastlabki tarbiyani bir qancha sharqshunos olimlarimiz Hindiston, Xitoy, Angilya , Fransiya va Arab mamlakatlaridagi talaygina qo'lyozmani o'rganishga Muyassar bo'ldilar va hozir ham davom ettirmoqdalar .Jumladan, T.N. Qori Niyoziy, H.Sulaymon, B.Ahmedov, S.G'aniyeva va boshqalarning bu sohadagi xizmatlari kattadir. Ular Ibtidoiy davrdagi tarbiya asosan oilada, jamoa va mehnat maskanlarida kishilar orttirgan tajribalarini bolalarga o'rgatishdan iborat bo'lishini ,bolalarga o'rgatilgan kundalik mehnat malakalari ularni yashash uchun kurashishga tayyor ,aql idrokli odobli bo'lib o'sishlarini ,ming yillar mobaynida moddiy ne'matlar yaratish uchun hamkorlikda qilingan mehnat, kishilar o'rtasidagi odob

axloq munosabatlarining meyorini keltirib chiqarganlarni aniqladilar . Ajdodlarimiz tomonidan qo‘lga kiritilgan qadimiy madaniyat tarkibidan ta‘lim tarbiyaga oid meroslarda ham alohida o‘rin olgan. Hozirgi turkiy va forsiy zabon xalqlarning bizgacha yetib kelgan muhim arxeologik topilmalari tarixchilar adabiyot va san‘at namoyondalarining asarlari buning dalilidir deyish mumkin. Yana shuni aytib o‘tish joizki, eng qadimgi tarbiyaga oid qo‘lyozma kitoblar aniq saqlanib qolinmagan . Yodgorliklar bevosita bizgacha yetib kelmagan. Turkiy va forsiy zabon xalqlarning hayot kechirish sanati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo‘lishining namunasi tarzida e‘tirof etilgan ma‘naviy madaniy yodgorliklari qadimgi grek tarixchisi Gerodotning „Tarix“, Strabonning „Geografiya“ Mahmud Qoshg‘ariyning „Devonu lug‘at -at turk“ kabi asarlari, O‘rxun -Enasoy yodgorliklari kabi adabiy -tarixiy manbalarda saqlangan. Ushbu yodgorliklarning mohiyatini o‘rganish insonning shakllanishida moddiy va ma‘naviy madaniyat qay darajada katta ahamiyat tutganidan dalolat beradi. Malumki kishilik jamiyatning vujudga kelishi jarayonida inson ham biologik jihatidan ham ijtimoiy jihatidan takomillashib dastlabki diniy e‘tiqodlar ,eng oddiy ixtirolarning takomillashib borishi kabi holatlar inson ongining ham shakllanib borishiga turtki bo‘ldi. Bu jarayon minglab yillarni o‘z ichiga olgan bo‘lib , anashu davrda inson ongining shakllanishining ,asosi sifatida qabul qilingan xulq odob qoidalari , ijtimoiy talablar yuzaga kelgan. Ushbu talablar muayyan davrda yaratilgan yodgorliklarning asosiy mazmuni va mohiyatini tashkil etadi. Eng qadimgi kishilarga xos bo‘lgan hislatlar, ularning dastlabki , oddiy istaklari, orzu umidlari qadimgi eposlarda aks etgan qadimgi afsonaviy obrazlar hamda qahramonlar qiyofasida o‘z ifodasini topgan.

### **Natija.**

Qadimgi Rimda ta‘lim tarbiyasiga oid o‘zining fikrlari bilan hissa qo‘shgan mashhur pedagog Mark Fabiy Kvintilin edi. Uning „Notiq tarbiyalash to‘g‘irisida “ nomli asarining anchagina qismi garchi bizga ham yetib kelmagan bo‘lsa ham , ammo bu asarning saqlanib qolgan parchalari pedagogik sohasidagi asosiy qarashlari to‘g‘irisida fikr yuritishga imkon beradi . Kvintialin bolalarning qobiliyatiga yuksak baho beradi. Uning fikricha berahmlilik va qobiliyatsizlik kamdan kam uchraydigan hodisadir. nazariy nasihatlar taqlid va mashqlar o‘qitish ishida katta ro‘l o‘ynashi kerak , ayniqsa bolaga bilim asoslarini mustahkam qilib berish , bu ishda shoshmaslik zarur. Kvintialinning bu maslahat lari uning tajribakor o‘qituvchi ekanligini ko‘rsatadi. Uning uyg‘onish davrida yangidan kashf qilingan asarlarini ko‘p pedagoglar qimmatbaho manba sifatida qiziqib o‘qidilar. Quldorlik

tuzimi eramizning uchinchi asridan boshlab yemirila boshlaganligi natijasida maorif va pedagogika ilmining pasayib ketishiga olib qadimgi G'arb davlatlarida shu jumladan Afina va Spartada ham quldorlik jamiyati rivojlanib , aholining tabaqalanishiga olib keldi,xalqning nasl nasabi va mol mulkiga ko'ra tabaqalarga bo'linishi maktablarga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.Natijada quyidagi ta'lim tizimi vujudga keldi . Aholi tabaqalari-Erkin oilada tug'ilgan aholi ,boy aslzodalar imtiyozli kishilar.Maktabi-Pulli,xususiy,boshlang'ich ta'lim ,uy maktablari . Grammatika.-Ritorlar.Talim mazmuni -O'qish,yozish, hisob, lotin,grek tillari o'qitiladi.Adabiyot ,tarix, Ritorika, Falsafa,Grek tillari, huquqshunoslik, matematika va musiqa Sparta davlatida jismoniy kamolotga katta etibor berilib, ayollar ham bu ishga jalb etilgan.

### **Xulosa.**

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki tarbiya shaxsni muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

- 1.O.Hasanboyeva,J.Hasanboyev,H.Homidov ., Pedagogika tarixi “.-Toshkent -2004.
- 2.Komiljon Xoshimov ,Sanobar Nishonova ., Pedagogika tarixi “-Darslik .-Toshkent-2005.
- 3.Abu Nasr Forobiy -,Fozil odamlar shahri “.-Toshkent .-2011.
- 4.O'zbek Pedagogika antalogiyasi-O'qituvchi nashriyoti matbaa uyi.-Toshkent -2010.
- 5.M.Koshg'ariy-.,Adab as Solihin”.-Toshkent .Yangi asr avlodi -2002.